



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI ХУДУДИДАГИ
СУВ ҲАВЗАЛАРИДА ЎСУВЧИ ТУБАН ВА ЮКСАК
СУВ ЎСИМЛИКЛАРИНИ КЎПАЙТИРИШ,
УЛАРНИ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДА ҚЎЛЛАШ

Республика илмий-амалий анжуман материаллари

Т Ў П Л А М И

2020 йил 13 ноябрь



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**АГРОНОМИЯ ВА БИОТЕХНОЛОГИЯ ФАКУЛЬТЕТИ
БИОЛОГИЯ КАФЕДРАСИ**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҲУДУДИДАГИ
СУВ ҲАВЗАЛАРИДА ЎСУВЧИ ТУБАН ВА ЮКСАК
СУВ ЎСИМЛИКЛАРИНИ КЎПАЙТИРИШ, УЛАРНИ
ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДА ҚЎЛЛАШ**

**мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман
материаллари**

Т Ў П Л А М И

2020 йил 13 ноябрь

Бухоро – 2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҲУДУДИДАГИ
СУВ ҲАВЗАЛАРИДА ЎСУВЧИ ТУБАН ВА ЮКСАК СУВ
ЎСИМЛИКЛАРИНИ ҚЎПАЙТИРИШ, УЛАРНИ ХАЛҚ
ХЎЖАЛИГИДА ҚЎЛЛАШ**

мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари

Т Ў П Л А М И

2020 йил 13 ноябрь

<i>Muharrir:</i>	<i>G'.Murodov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G.Samieva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>A.Qalandarov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M.Ortiqova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga ruxsat etildi: 16.11.2020. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'oz. Bosma tobog'i 9,7. Adadi 100. Buyurtma №189.

“Sadridin Salim Buxoriy” MChJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги сув ҳавзаларида ўсувчи тубан ва юксак сув ўсимликларини кўпайтириш, уларни халқ хўжалигида қўллаш

<i>stratiotes l) ўсимлигини кўпайтириши ва сувни органиано-минерал моддалардан тозалаш биотехнологияси</i>	
Toxirov B.B., Raxmatova Z.B., Tolibova N.N. <i>O'zbekiston respublikasi hududidagi suv havzalarini tuban va yuksak o'simliklar yordamida tozalash</i>	93
Ходжиева М.С. <i>Турфа angustifolia-ингичка баргли қўға ўсимлигининг халқ-хўжалигидаги аҳамияти</i>	95
Rahmonova K.Q., Tashpulatov Y.Sh. <i>Dorivor suv o'simligi xushbo'y igir (Acorus calamus l.) Ni madaniylashtirish sharoitida o'sishi va rivojlanishi</i>	97
Хонжонова М., Namozova D., Qobilov A. <i>Azollaning bioekologik xususiyatlari va ahamiyati</i>	99
Қобилов А.М., Юлдашов Л.Т., Исмоилова Д.З. <i>Қора-қир кўлининг юксак сув ўсимликлари ва уларни балиқчиликда қўллаш</i>	103
Jalolov E.B., Shodmonov F.Q., Aripov B.F. <i>Baliqchilikni rivojlantirishda yuksak suv o'simliklarining rol</i>	103
Во'риев С.В., Jalolov E.B., Yuldoshov L.T. <i>Ryaska va pistia o'simliklari chorvachilikda, parrandachilikda hamda baliqchilikda samarali qo'llas</i>	105
Ikromova H.S., Yusupov M.U., Yarqulova Z.R. <i>Suv o'simliklariga fizik omillarning ta'siri va dinamikasi</i>	107
Jalolov E.B., Qobilov A.M., Давронова Ш. <i>Yuksak suv o'simliklarining tabiatda va xalq xo'jaligidagi ahamiyati</i>	110

4-ШҶЪБА

СУВ ҲАВЗАЛАРИДАГИ ЎСИМЛИКЛАРДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Ҳайдаров С.А., Хўжамшукуров Н.А., Абдиназаров Х.Х. <i>Балиқчилик тармогини микросувўтларидан фойдаланиш истиқболлари</i>	113
Холиқов А.Ф., Воҳидов Х.Т. <i>Айдар-арнасой кўллар тизимида оқ сла - Sander lucioperca (Linnaeus, 1758) нинг морфологик хусусиятлари ва муҳофазаланиши</i>	115
Farmonova O.S. <i>Suv havzalaridagi suv o'tlarining xilma-xilligi va ulardan foydalanishning dolzarb masalalari</i>	117
Эсанов Ҳ.Қ., Аслонова К.А. <i>Жанубий- гарбий қизилқум флорасидаги айрим юксак сув ўсимликларининг аҳамияти</i>	119
Сафарова З.Т., Асадова Н.Ё. <i>Ўзбекистон сув ҳавзаларидаги сув ўсимликларидан фойдаланишининг долзарб масалалари</i>	121
Бакаева Ш. <i>Хозяйственные особенности растения эйхорния водный гиацинт- Eichornia</i>	123
Ҳайитов Ё. Қ., Тошбеков Н.А., Жумаева Т.А. <i>Сув ресурсларидан</i>	124

(*Myriophyllum spicatum* L., *M. Verticillatum* L) va xara (*Chara fragilis* Desv.) tarkibida kalsiy va fosfor elementlari mavjudligi bilan barcha qishloq xo'jaligi ekinlaridan ustun turadi. Mikroelementlar eng ko'p miqdorda kichik ryaska (*Lemna minor* L.) tarkibida mavjud bo'lib, uning 1 kg biomassasida 0.48 mg kobalt, 0.18 mg brom, 0.32 mg mis, 0.7 mg nikel, 4.8 mg titan borligi aniqlangan. Shuning uchun ham, oq amur (*Ctenopharyngodon idella*) baliqlaridan 1 kg biomassa olish uchun, 35 kg yuksak suv o'simliklari sarflanishi lozim bo'lgan holda, ryaskadan (*Lemna minor* L., *gibba* L.) dan 20 kg sarflanishi kifoyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Esanov H.Q., Aslanova K.A., va boshq. Mikroskopik suvo'tlari va yuksak suv o'simliklarini ko'paytirish, ularni xalq xo'jaligida qo'llash // Res.konf. 2018-y. 83-84 b
2. Эсанов Х.К. Новые виды во флоре Бухарского оазиса // Turczaninowia 19 (2): 77-81 (2016) <http://turczaninowia.asu.ru>
3. Esanov H. K., Usmonov M.X. Two alien species of Asteraceae new to Uzbekistan (Bukhara oasis) // Turczaninowia 21 (4): 175-180 (2018) <http://turczaninowia.asu.ru>
4. Jalolov E.B. Zarafshon baliqchilik xo'jaligi hovuzlaridagi yuksak suv o'simliklarining turlarini o'rganish. Mag. dis.-Buxoro, 2016.-20-27 b

RYASKA VA PISTIA O'SIMLIKLARI CHORVACHILIKDA, PARRANDACHILIKDA HAMDA BALIQCHILIKDA SAMARALI QO'LLASH

S.B. Bo'riyev, E.B. Jalolov, L.T. Yuldoshov
Buxoro davlat universiteti

Ryaska va pistia o'simliklarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati beqiyosdir! Malumki qishloq xo'jalik mollariga ozuqa sifatida sheluxa, va kunjalar ishlatiladi. Bu mahsulotlarning tarkibi vitaminlari juda ham kam. Shu sababli mollarga bu mahsulotlarni berish natijasida ularda har xil kasalliklar, xususan avitaminoz paydo bo'ladi. Ryaskaning tarkibida oqsil, yog'lar, va ko'p miqdorda vitaminlar bor. Ryaska suv o'tining ozuqa sifatida ishlatilganda ularning qishloq xo'jlik mollariga ta'sirini o'rganish uchun Taubayev 1971 yilda, D. Abdullayevlar bir qator tajribalar o'tkazdilar, Ryaskaning qo'ylarga ta'sirini o'rganish uchun ularning kundalik ozuqasini 2 kg paxta shulxasi va 200 gr paxta kunjasi bo'lgan. Ularning hammasi bir xil sharoitda saqlangan tajriba uchun ajratilgan qo'ylarga yuqoridagi oziqdan har kuniga 0,5 kg kichik ryaska berilgan. Tajriba 10 kun davom ettirilgan. Tajriba vaqtida berilgan ryaska variantidagi qo'ylarning og'irligi 10 kun ichida 1,6 kg ga oshgan kontrol variantda esa 0,9 kg ya'ni tajriba variantida 2,3% qo'yning og'irligi oshgan.

Ryaska o`simligining cho`chqalarda ta`sirini o`rganish uchun tajribalar o`tkazilgan. Tajriba uchun qo`yilgan cho`chqa barcha ozuqadan tashqari har kuniga 1kg ryaska berilgan. 26 kun ichida tajriba uchun olingan cho`chqalarning ogiligi 8,4-9,6 kgni tashkil qilgan, kontrolga nisbatan 2,4 kg ortiqcha. O`rtacha kundalik o`shish tajriba variantida 3,23-3,69 kg yoki 77-108 g kontrolda ortiq.

Demak ryaska o`simligining qo`ylar va cho`chqalar ozuqasiga qo`shib berilsa ularning semirishini ko`paytirar ekan va ularni sog`lomlashtiradi.

O`zbekiston sharoitida tarqalgan ryaska o`simligini parrandachilikda va baliqchilikda qo`llanilgan.

Tajribalar yana shuni ko`rsatdiki tovuqlarda 1sutkada 30-50 gr 5 oyda yashil ryaska qo`shilganda 31,6% dan og`irroq bo`ldi oddiy tovuqlarga nisbatan xuddi shunday ryaskani tovuq ozuqasiga qo`shilishi uning tuxum qo`yishini 40-50% ga ko`paytirishi ko`ga tutilgan.

Yashil ryaska juda muhim vitaminli ozuqa ayniqsa jo`jalar uchun 3kunlik tajribadagi jo`jalarga asosiy ratsion ozuqasiga 30 kun davomida 3gr dan ryaska qo`shilganda 10 kundan keyin tajriba oxirida 5g da kuniga 24,7 o`girroq bo`ldi.

Quritilgan ryaska qish paytida tovuqlar va boshqa uy parrandalarini uchun ajoyib oqsil, vitaminli ozuqa hisoblanadi. Soyada quritilgan ryaska tarkibida 25-30 % protein 3,5 % yog` 60-95 mg/kg karotin bo`ladi. Ayrim tajribalarda tovuqlarga go`sht suyakli un va boshqalar o`rniga ryaska ishlatilganda ularning tuxum qo`yishi 30-35% sarig`ida karotin 10%, vitamin A 52% ko`proqligi ko`rindi. Ryaska biomassasi bo`y o`stirishi stimulatori va hayvonlar qushlarning rivojlanishi uchun ishlatiladi. Bu stimulator tuxum qo`yishi va tuxumlarning sifati va mikroelementlarining mavjudligi bilan tushuntiriladi. Ryaska qushlarga konsentrat ozuqa o`rnini bosadi. 1 kg kunlik o`rdak ozuqasidagi 100 gr konsentrat o`rniga 500-600 gr yashil ryaska, bu har bir boshga 1sentener konsentrat iqtisod qilish mumkinligini ko`rsatdi. Ryaska o`txor baliqlar uchun ham juda yaxshi ozuqa hisoblanadi. F.M. Suxoverxova kuzatishlarida 2y illik karp balig`iga beriladigan ryaska ratsioni 4% ga oshirilganda baliqqa beriladigan ozuqa 24,7% ga kamayadi. Shuning uchun baliq o`stiriladigan suv havzalarida ryaska o`simligini o`sishi, ayniqsa suv o`simliklari bilan oziqlanuvchi oq va qora amur baliqlarini ko`paytirishda muhim ahamiyatga ega. Bu o`simliklar baliqlarga faqat ovqatgina bo`lib qolmay, baliqlarni ko`payishida ham muhim ahamiyatga ega. Tajriba uchastkasidagi baliqlar oddiy baliqlardan ancha tez o`sadi va standart og`irligi 60 kun oldinroq olinadi.

Pistiya telorezovidniy hozirgi vaqtda asosan zavodlardan fabrikalardan shaharlardan chiqadigan oqava suvlarni tozalash uchun O`zbekiston hududida keng qo`llaniladi. Pistiya suv o`ti ifloslangan suvlarda ko`p miqdorda o`sib rivojlanib, suvlarni har xil organik va mineral zaharli

moddalardan hamda patogen bakteriyalardan tozalashda muhim rol o'ynaydi.

Pistiya o'simligining biomassasidan har xil maqsadlarda foydalanish mumkin. Biomassa tarkibida oqsillar, uglevodlar, yog'lar vitaminlar faol moddalar bo'lganligi tufayli, ularni chorvachilikda, parrandachilikda baliqchilik sohasida qo'llash mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. M. Yuldashov, Kelajak mutaxasislarga bog'liq // O'zbekiston baliqchiligi, 2018-№1. - B. 18-19, 44-45.

2. Уманская М.В. Высшая водная растительность оз. Кандрыкуль (Республика Башкортостан). Самарская лука: проблемы региональной и глобальной экологии. – Самара, 2014.-Т.23, № 2. – С.141-145.

3. Мерзвинский Л.М., Мартыненко В.П., Высоцкий Ю.И., Становая Ю.Л. Высшая водная растительность озера Островцы. – Витебск, 2011. №2 (62) – С. 75-81.

4. Qobilov A.M. Orol dengizi mintaqasida yuzaga kelgan ofatlarning antrotabiyy muhitga ta'siri // Res.konf. 2015-y. 169-171 b

SUV O'SIMLIKLARIGA FIZIK OMILLARNING TA'SIRI VA DINAMIKASI

H.S. Ikromova, M.U. Yusupov, Z.R. Yarqulova
Buxoro davlat universiteti

Sayyoramizda organizmlar katta harorat diapazonida yashaydi. Ko'p turlar uchun 20-30° C ekologik optimum hisoblanadi. Ko'pchilik gidrobiontlar esa 35° C baland haroratda yashay olmaydi. Quruqlikda yashovchi issiq sevar organizmlar 50° C haroratga ham chidamlidirlar.

Yorug'lik – fotosintezda qatnashadigan barcha organizmlarga zarur, jumladan suv o'simliklariga xam. Harorat o'simliklar hayotida bu ekologik omil modda almashinish tezligi, fotosintez, transpiratsiya va boshqa bioximik va fiziologik jarayonlar hamda ekologik xulq atvor reaktciyalariga ta'sir qiladi. Quyosh nurlari atmosferadan o'tgandan so'ng tarkibi o'zgaradi. Ultrobinafsha nurlar azonda absorbtkiyaga uchraydi va yer yuziga infraqizil nurlarning 1% gina etib keladi.

Yer yuzida 5ta issiqlik zonalari bor. Ular ekvator, tropik, subtropik, o'rtacha va qutbiy iqlimlardir.

Ekologiyada atrof muhitning issiqlik holati harorat orqali ifodalanadi, buning uchun 100° C shkalasi ishlatiladi. Geografik rayonlarning issiqlik bilan ta'minlanishi, umumiy iqlim ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Ular joyning o'rtacha yillik harorati, absolyut maksimum va absolyut minimum, eng issiq va eng sovuq oylarning o'rtacha temperaturalaridir.

Temperaturaning keng diapazoniga chidamli turlar-evriterm turlar, temperaturaning tor diapazoniga chidamli turlar stenoterm turlar deyiladi.